

ИНFEKSIYA HAQIDA TA'LIMOT

Absamatova Dilnura Baxodir qizi –

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi.

Yusupova Sabrina Baodir qizi-

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Mamarasulova Nafisa Isrofilovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Mikrobiologiya, Virusologiya,

Immunologiya kafedirasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada infeksiya tushunchasi, uning rivojlanish mexanizmlari, infeksiyon jarayon bosqichlari, organizm va mikroorganizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda infeksiyon kasalliklarning klinik ahamiyati yoritilgan. Infeksiya haqida ta'limot tibbiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие инфекции, причины её возникновения, механизмы развития инфекционного процесса, его стадии, а также иммунный ответ организма на инфекцию. Освещается значение учения об инфекции в медицинской практике, его роль в профилактике, диагностике и лечении инфекционных заболеваний.

Abstract: This article discusses the concept of infection, its causes, mechanisms of development of the infectious process, its stages, and the immune response of the organism to infection. The importance of the theory of infection in medical practice, as well as its role in the prevention, diagnosis, and treatment of infectious diseases, is scientifically substantiated.

Kalit so'zlar: infeksiya, patogen, virulentlik, immunitet, infeksiyon jarayon, mikroorganizmlar.

Kirish: Infeksiyon kasalliklar insoniyat tarixida eng qadimgi va eng keng tarqalgan kasalliklar guruhiga kiradi. Qadim zamonlardan buyon o'lat, chechak, vabo, sil kabi infeksiyon kasalliklar millionlab insonlar hayotiga zomin bo'lgan. Tibbiyot fanining rivojlanishi bilan infeksiyon kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalish yo'llari va oldini olish choralari ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Shu jihatdan infeksiya haqida ta'limot zamonaviy tibbiyot fanining fundamental nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Infeksiya — bu patogen va shartli-patogen mikroorganizmlarning makroorganizmlarga kirib borishi, u yerda ko'payishi hamda organizmning murakkab biologik va immunologik javob reaksiyalarini yuzaga keltiruvchi jarayondir. Ushbu jarayonning rivojlanishi nafaqat mikroorganizmlarning biologik xususiyatlariga, balki inson organizmining immun holati, yosh xususiyatlari, irsiy omillari hamda tashqi muhit sharoitlariga ham bevosita bog'liqdir. Shuning uchun infeksiyon jarayon doimo mikroorganizmlar va makroorganizm o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar natijasi sifatida qoraladi. Bugungi kunda globalizatsiya, aholining migratsiyasi, ekologik muammolar, antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning ko'payishi infeksiyon kasalliklarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, yangi va qayta paydo bo'layotgan infeksiyalar tibbiyot oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda infeksiya haqida ta'limotni chuqur o'rganish infeksiyon kasalliklarni erta aniqlash, samarali davolash va ularning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Infeksiya haqida ta'limot mikrobiologiya, immunologiya, epidemiologiya va klinik tibbiyot fanlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ta'limot yordamida infeksiyon jarayonning rivojlanish bosqichlari, patogen mikroorganizmlarning virulentlik omillari, organizmning himoya mexanizmlari hamda infeksiyon kasalliklarning klinik kechishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Mazkur maqolaning maqsadi infeksiya tushunchasi, infeksiyon jarayonning asosiy qonuniyatlari, uning rivojlanish mexanizmlari va tibbiyot amaliyotidagi ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritib berishdan iborat. Ushbu ma'lumotlar

tibbiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda amaliy shifokorlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Infeksiya (lotincha: inficio, infeci, infectum – yuqtirmoq, buzmoq, zaharlamoq) – patogen mikroob (yoki virus)ning odam yoki hayvon organizmiga kirishi, ko‘payishi va ayni vaqtda mikroob bilan organizm o‘rtasida o‘zaro murakkab munosabat vujudga kelishi. „Infeksiya“ termini ba‘zan boshqa ma’noda – kasallik yuqqan paytni, infeksiyon kasallikni, uning mikroobini ifodalash uchun ishlatiladi. Infeksiya kasallik shaklida, shuningdek, bakteriya tashuvchilik shaklida namoyon bo‘ladi. Mikroblarning bir turi qo‘zg‘atgan kasallik oddiy infeksiya, ikki yoki bir necha turi qo‘zg‘atgan kasallik aralash infeksiya, yuqumli kasallik bilan og‘rib o‘tgan kishiga takror Infeksiya yuqishi reinfeksiya, mikroblarning muayyan turi zarar yetkazgan organizmga takror Infeksiya yuqishi superinfeksiya deb ataladi. Ba‘zi mikroblar organizmda inaktiv holatda bo‘ladi, ammo muayyan sharoitda (kishi o‘ta charchaganda, sovuqotganda va b.) patogen xossalarini namoyon qila oladi (autoinfeksiya), shuning natijasida kasallik ro‘y beradi. Infeksiyaning paydo bo‘lishi va o‘tishida patogen mikroorganizmlarning quyidagi xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi: 1) spetsifikligi, ya’ni muayyan biologik turning organizmda yashashi (mas, qizamiqvirusi faqat odam organizmida parazitlik qiladi) va faqat o‘zi uchun harakterli infeksiyon kasallikni qo‘zg‘atishi; 2) virulentligi, ya’ni kasallikka nechog‘li sabab bo‘la olishi (qarang Virulentlik); 3) muayyan a‘zolarida (aksari ichki a‘zolarida) joylasha olishi (mas, gonokokk siy-dik yo‘llari bilan ko‘z shilliq pardasi-da; stafilokokklar va streptokokklar jinsiy a‘zolarida; meningokokk miya pardalarida, dizenteriya tayoqchalari yo‘g‘on ichak de-vorida yashab ko‘payadi). Infeksiyaning paydo bo‘lishi va o‘tishida makroorganizmning xususiyatlari va ijtimoiy sharoit muhim rol o‘ynaydi. Odam organizmi mikroob kirishiga befarq bo‘la olmaydi. Odam va hayvonlar organizmi har xil fiziologik va immunologik mexanizmlari borligi tufayli ko‘p mikroblarga tabiiy chi-damli bo‘ladi (teri va shilliq pardalar ko‘p mikroblarni o‘tkazmaydi, bezlardan ishlanib chiqadigan shilim-shiq, me‘da shirasi, o‘t, ko‘z yoshi va sh. k. ba‘zi bakteriyalarni, viruslarni o‘ldiradi va hokazo). Odam va hayvonlar organizmi kasallik

mikroblarining kirishiga javoban immunitet reaksi-yalarini rivojlantiradi (fagotsitlar mikrobg nisbatan spetsifik aktivla-shadi, antitelolar ishlana boshlaydi, allergiya vujudga keladi).

Xulosa: Infeksiya haqida ta'limot tibbiyot fanining muhim va ajralmas bo'limlaridan biri bo'lib, infeksiyon kasalliklarning kelib chiqishi, rivojlanishi va yakunlanish jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Ushbu ta'limot mikroorganizmlar va makroorganizmlar o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarni ochib berish orqali infeksiyon jarayonning mohiyatini chuqur anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kislenko V.N., Kolichev N.M., Veterinarnaya mikrobiologiya i immunologiya. Chast 1. Obshaya mikrobiologiya. M. KolosS, 2006 g. S.13- 66.
- 2.Yemelyanenko P.A. i dr.Veterinarnaya mikrobiologiya. M., Kolos., 1982.S.7-25.
3. Vorobyev A.A. Medisinskaya mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. M. 2008 g. S. 30-50.
4. Asonov N.R. Mikrobiologiya. M.: Agropromizdat. 1989.5.3-18.